

Amanova Gulnoz Abdukayumovna

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqatlari markazi tayanch doktoranti

E-mail: agulnoz@mail.ru

UDK 378.14

TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI

Annotatsiya: *Ushbu maqola talabalarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rniga bag'ishlangan. Maqolada talabalarining mustaqil fikr yuritishi, o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga tayyorlik, kognitiv faollik kabi qobiliyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Talabalarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mustaqil ishlarini tashkil etish holati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: kompetentsiya, kompetentsiya, kognitiv kompetentsiya, kognitiv faoliyat, mustaqil ish, bilim, ko'nikma, tajriba.

Аманова Гулноз Абдукаюмовна

Докторант Центра исследований развития высшего образования

E-mail: agulnoz@mail.ru

РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ

Данная статья посвящена роли самостоятельного обучения в развитии когнитивной компетентности учащихся. В статье высказываются мнения о таких способностях студентов, как самостоятельное мышление, готовность к самообразовательной деятельности, познавательной активности. Анализируется состояние организации самостоятельной работы студентов по развитию их когнитивных компетенций.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, когнитивная компетентность, познавательная деятельность, самостоятельная работа, знания, умения, опыт.

Amanova Gulnoz Abdukayumovna

THE ROLE OF INDEPENDENT LEARNING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE

This article is devoted to the role of independent learning in the development of students' cognitive competence. The article expresses opinions about such abilities of students as independent thinking, readiness for self-educational activities, and cognitive activity. The state of organization of independent work of students to develop their cognitive competencies is analyzed.

Key words: competence, competence, cognitive competence, cognitive activity, independent work, knowledge, skills, experience.

Kirish. Oliy ta'lim qarashlarida "teaching" formatidan "learning" formatiga tomon o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ya'ni talabani "o'qitish" emas, balki talabani "o'qishga o'rgatish" kerak degan g'oya ustuvor bo'lmoqda. Bu g'oyaga ko'ra inson butun umri davomida o'qiydi, talaba fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil tarzda o'zlashtiradi, o'qituvchining vazifasi esa – talabaning shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda unga zarur yordamni ko'rsatishdir.

O'zbekistonda ta'limini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri xalqaro ta'lim makoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvidir. Talabalarning ta'lim faoliyatini individuallashtirishni ta'minlaydigan dasturlar o'quvchilarda mustaqillik, o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga tayyorlik, kognitiv faollik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, kredit - modul ta'lim tizimi sharoitida talabalarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ayniqsa dolzarbdir.

Talabalarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rnini beqiyos. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining barcha o'quv reja va dasturlarida talabalarning mustaqil talimiga alohida o'rin ajratilgan.

Ammo mustaqil ta'limga bo'lgan innovatsion yondashuvlar bugungi islohotlar talabi darajasida to'laqonli o'z yechimini topa olgan emas. Olimlar va

amaliyotchilarning talabalarining mustaqil ishini tashkil etish muammosiga katta e'tibor qaratishiga qaramay, yechimini talab qiladigan muhim masalalar hamon saqlanib qolmoqda. Yu.Miroshnichenko va O.Troyan ta'kidlaganidek, bular:

- talabalarining mustaqil ishini tashkil etish maqsadi va uni amalga oshirish usullari o'rtasidagi ochilmagan aloqalar va munosabatlar;
- kredit-modulli ta'lim tizimi sharoitida talabalarining mustaqil ishini tashkil etishni nazariy tushunish va asoslash;
- mustaqil ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish sharoitida talabalarni rag'batlantirish masalalari;
- talabalar tomonidan mustaqil ta'lim olishning oqilona usullarini o'zlashtirish;
- mustaqil ta'lim faoliyati davomida talabalarda ko'nikma va malakalarini shakllantirish [4].

Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishning bugungi kundagi muammolari doimiy e'tibor va yuqori sifatli yechimlarni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida talabalarining bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi masalalari bo'yicha faol tadqiqotlar 20-asr o'rtalarida boshlanganini ko'rsatdi, garchi o'tgan asrning boshlarida I.Gessenning ta'kidlaganidek erkin rivojlanish - bu faol va mustaqil ish bo'lib, u ayni paytda shaxsni yaratish manbai hisoblanadi. Talabaning shaxsiyati nafaqat uning yozgan yoki gapirgan so'zlari, qo'llarining harakatlari, balki uning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklari va ixtiyoriy harakatlari, shuningdek, uning holati bilan ham yaratiladi [2]. Bizning fikrimizcha, intellektual ishning faolligi va mustaqilligiga uning zarurligini, foydaliligini, ko'p jihatdan maqsadga muvofiqligini va albatta ijodiy tomonini qo'shish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik adabiyotlarda "mustaqil ta'lim faoliyati" asosan faoliyat yondashuvi, shuningdek, shaxsni rivojlantirish nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda (kuzatish, suhbat, bahs-munozaralar, davra suhbat) va V.I. Andreyevning "Mustaqil ta'lim olish qobiliyatini baholash darajasini aniqlash" metodikasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Talabalarning mustaqil ta'lim olishga amaliy tayyorgarligining asosi - bu kognitiv, intellektual, tashkiliy ko'nikmalar, ma'lumotlarni tanlash, egallash, baholash va to'g'ri foydalanish qobiliyatidir.

Ilmiy izlanishimiz davomida biz quyidagi vazifalarni hal qilishimiz kerak edi:

- talabalarning mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirishga munosabatini aniqlash;

- qanday o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalariga ega ekanligini aniqlash;

- mustaqil ta'lim faoliyatida kompetensiyalarning rivojlanish darajasini belgilash;

- kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchining mustaqil ta'lim jarayonida rag'batlantirish usullarini ishlab chiqish.

Dastlabki tajriba-sinov bosqichida talabalarning mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini egallashga munosabatini aniqlash, shuningdek, kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'z-o'zini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida Qo'qon davlat pedagogika instituti tarix fakulteti 1-3 kurs talabalari o'rtasida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Tajriba ikki bosqichdan iborat bo'ldi: dastlabki, nazorat. Tajribada 67 nafar talaba qatnashdi. (1-jadval).

Jadval 1

Dastlabki va nazorat bosqichlarining natijalari

Bosqishlar	Daraja	Nazorat guruhi (34 talaba)	Tajriba guruhi (33 talaba)
Dastlabki bosqich	Yuqori	38,2% (13 talaba)	45,4% (15 talaba)
	O'rta	47% (16 talaba)	45,4% (15 talaba)
	Past	14,7% (5 talaba)	9% (3 talaba)

Nazorat bosqichi	Yuqori	47% (16 talaba)	78,4% (21 talaba)
	O'rta	44,1% (15 talaba)	8,9% (11 talaba)
	Past	8,8% (3 talaba)	2,7% (1 talaba)

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tadqiqotning dastlabki bosqichida ikkala guruhda ham mustaqil ta'lim olish qobiliyatini baholashning shakllanish darajasi yetarlicha yuqori bo'lmagan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki: talabalarning aksariyati o'z-o'zini rivojlantirishni (kasbiy rivojlanish shaklida) kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish omili sifatida qaraydilar, lekin mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ega emaslar. Ular kerakli ma'lumotlarni topishda, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatishda, ushbu materialni o'zlari bilganlari bilan bog'lashda, o'qiganlarini jadval, grafik va diagrammalarda tizimlashtirishda qiynaladilar. Talabalar har doim ham o'z faoliyatlarini rejalashtirmaydilar, kamdan-kam hollarda o'z ustilaridan nazoratni amalga oshiradilar, ma'ruza va tezislar tayyorlashni istamaydilar, ko'p ma'lumotlarni qabul qila olmaydilar. Ular ma'lumotlarni umumlashtirish yoki mantiqiy xulosalar chiqarishni bilishmaydi. Talabalar mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan bir qator sabablarni, asosan vaqt yetishmasligida, barcha fanlar bo'yicha uy vazifalarini yuklash va boshqalarni ko'rsatdilar.

Tajriba davomida mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyoj nazorat guruhida 9% ga, tajriba guruhida esa 33% ga oshdi. Bu shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida o'tkazilgan mashg'ulotlar yordamida talabalar o'quv faoliyatida mustaqil ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash muhimligini anglab yetgan, Vaqtni boshqarishni o'rganganlar, mustaqil ta'lim olishda, shaxsiy rivojlanishda ularning motivatsiyasi va faolligi ortgan.

Talabalar mustaqil ishlarni bajarishda, bilish faolligini oshirishda, turli bilimlarni egallashda ma'lum qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar, motivatsiyaning oshganligi, turli bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish bu ularning

mustaqil ta'limdagi faol pozitsiyasini ko'rsatadi va tajribada o'rta darajani ko'rsatadi;

O'qishga qiziqmaydigan va bo'layotgan voqealarga befarq, mustaqil ta'limning ahamiyatini tushunmaydigan, nazariy bilimlaridan amaliy faoliyatda foydalanishni bilmaydigan talabalar orasida past daraja kuzatiladi. Bunday talabalarda motivatsiyaning yetishmasligi, kasb tanlashda adashganlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, institutda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida kasbiy va kodnitiv kompetentsiyalarni egallashning barcha bosqichlarida talabalarning mustaqil talim olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun tajriba ishlari qilindi. 1- kurs talabalari bilan maxsus, ilmiy va metodik adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mashg'ulot tashkil etildi.

3-kurs talabalari bilan nutq va ma'ruzalarni tayyorlashda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini egallash bo'yicha mashg'ulot tashkil etildi va davra suhbatlari o'tkazildi

Aniqlangan ko'nikma va malakalar kasbiy mahorat, shuningdek ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ko'nikmalarga – kognitiv kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirish ko'rsatkichlariga kiradi. Bundan tashqari, bu ko'nikma va malakalarlar talabalarning o'z faoliyatini qabul qilish va asoslash (motivatsiya), uni tahlil qilish va rejalashtirish (refleksiya), ya'ni zarur kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Shunday qilib, ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimi sharoitida o'qituvchi va talabaning roli keskin o'zgarib, bilim beruvchidan o'qituvchi maslahatchi, koordinator, talaba esa passiv idrokdan axborotni faol izlashga o'tadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Boloniya jarayoni sharoitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quv materialining asosiy qismi mustaqil o'rganish uchun taqdim etiladi;
- 2) mustaqil ish uchun maxsus didaktik materiallar yaratish;

3) o'quv faoliyatining individual rejimi va alohida fanlarni va o'quv materialini o'rganish o'rganish uchun individual jadval;

4) o'qituvchi funksiyalarini o'zgartirish (tashkilotchi, rahbar, maslahatchi, nazoratchi);

5) talabaning pozitsiyasini o'zgartirish (o'quv material ustida ishlashda tashabbus, o'z ishini mustaqil rejalashtirish, rejalashtirilgan individual rejani amalga oshirish uchun javobgarlik va boshqalar).

Foydalangan adabiyotlar

1. Блинова М.Л., Загайнов И.А. Самостоятельная работа как важный этап самообразования обучающихся // Дискуссия. 2016. №11 (74).

2. Гессен С.И. Основы педагогики. Введение в прикладную философию/Отв. Ред и сост. П.В. Алексеев. — М.: «Школа-Пресс», 1995. — 448 с.

3. Zaripov L. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish [Matn] : metodik qo'llanma / L. Zaripov, N. Hayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.

4. Мирошниченко Ю. Анализ организаций самостоятельной работы студентов университета в процессе кредитно-модульного обучения /Ю. Мирошниченко, О. Троян // Луганск. — №2 (33). — 2010. — С. 60–65.

5. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. — T.: TDPU, 2008. — 160 b.

6. Yo'ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni // Uslubiy qo'llanma. — T.: O'zMU, 2022. — 41 b.

7. Сластенин В. А. Педагогика: учебное пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В. А. Сластенина. Москва: Издательский центр "Академия", 2013. 576 с.

8. Проектирование самостоятельной работы студентов юридических специальностей: мет. пособие:/А.О. Кучерявий, М.Л.Шелухин, В.В. Кадала; Под ред А.О. Кучерявого. — Донецк: ПП «ВД «Кальмус», 2013. — 200 с.

9. Karimova D.R. Kredit-modulʼ tizimida mustaqil taʼlim // Uslubiy qoʻllanma. — Toshkent: OOO “Complex Print”, 2021. 126 bet.

10. Минина Е.В. Самообразование как форма самостоятельной работы студентов // Педагогическое образование в России. 2013. №2.